



## Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi maktablariga QABUL IMTIHONI MATERIALLARI SPETSIFIKATSIYASI

BIOLOGIYA VA TABIIY FANLAR

10-SINF

2024/2025-o'quv yili

Mazkur test spetsifikatsiyasining maqsadi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi maktablarga qabul jarayonida o'quvchining biologiya va tabiiy fanlardan bilim darajasini aniqlash va qabul imtihonida qo'llaniladigan test variantlari strukturasi va unga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

### ● Biologiya va tabiiy fanlar bo'yicha qabul imtihoni

Biologiya va tabiiy fanlar bo'yicha qabul imtihoni fan bo'yicha o'quvchilarning savodxonlik darajasini diagnostika qilishga mo'ljallangan topshiriqlardan iborat bo'ladi.

### ● Biologiya va tabiiy fanlar bo'yicha qabul imtihoni materiallari qamrab olgan sohalar

Biologiya va tabiiy fanlar bo'yicha qabul imtihoni test sinovi topshiriqlari umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanidan 5-9-sinflari materiallari asosida quyidagi mazmun sohalarini qamrab oladi:

1. Tirik organizmlarning xilmaxilligi
2. Tirik organizmlarning tuzilishi (hujayra, to'qima, organ, organlar sistemasi)
3. Tirik organizmlarning xususiyatlari (koordinatsiya, harakatlanish, moddalar almashinuvi (oziqlanish va nafas olish, ayirish), moddalar transporti, reproduksiya, o'sish va rivojlanish)
4. Sitologiya asoslari
5. Hayotiy jarayonlarning kimyoviy asoslari
6. Hujayralarda moddalar va energiya almashinuvi
7. Organizmlarning ko'payishi va individual rivojlanishi
8. Genetika seleksiya va biotexnologiya asoslari

### ● Qabul imtihonida diagnostika qilinadigan o'quv va aqliy faoliyat ko'rsatkichlari

Diagnostika ishi o'quvchilarning biologiya va tabiiy fanlar bo'yicha quyidagi o'quv va aqliy faoliyat ko'nikmalarini nazorat qiladi.

Faoliyat turi	O'quv va aqliy faoliyat ko'nikmalari darajasiga qo'yiladigan talablar
Bilish va tushunish	Biologik obyekt, hodisa, jarayonlarni eslaydi, taniydi, biologik obyekt, hodisa, jarayonlar mohiyatini va ahamiyatini sharhlaydi, talqin qiladi, tushuntira oladi, misollar keltira oladi, ta'riflay oladi
Qo'llash	Biologik obyekt, hodisa, jarayonlar haqidagi qonun va qonuniyatlarni qo'llaydi, berilgan topshiriqlar yechimining modeli va sxema tarzida ifoda etadi.
Tahlil	Biologik obyekt, hodisa, jarayonlarni tarkibiy qismlarga, toifalarga, guruhlariga ajratadi, qismlar orasidagi munosabatlarni, umumiy qonuniyatlarni aniqlaydi, xususiydan umumiyga, umumiydan xususiyga va murakkabdan oddiyga yo'nalishida tahlil qila oladi.

● **Nazorat qilinadigan ko'nikmalar bo'yicha diagnostika ishi strukturasi**

T/r	O'quv va aqliy faoliyat turi	Topshiriqlar soni	Ulushi
1	Bilish va tushunish	2	20%
2	Qo'llash	7	70%
3	Tahlil	1	10%
	<b>JAMI</b>	<b>10</b>	<b>100%</b>

● **Biologiya va tabiiy fanlar o'quv dasturi mazmunining bo'limlar hamda o'quv va aqliy faoliyat ko'nikmalari bo'yicha qamrab olinishi**

Bo'lim	Ta'lim komponentlari	Bilish va tushunish	Qo'llash	Tahlil	JAMI
Tirik organizmlarning xilmaxilligi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Bakteriyalar dunyosi</li> <li>• Zamburug'lar dunyosi</li> <li>• O'simliklar dunyosi</li> <li>• Hayvonot dunyosi</li> <li>• Tirik organizmlar klassifikatsiyasi</li> </ul>		1		1
Tirik organizmlarning tuzilishi (hujayra, to'qima, organ, organlar sistemasi)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Hujayra – tirik organizmlarning tuzilish birligi</li> <li>• To'qimalar</li> <li>• Gulli o'simliklarning vegetativ organlari.</li> <li>• O'simliklarning generativ organlari</li> <li>• Odam va hayvonlarning organlari va organlar sistemasi</li> </ul>		1		1
Tirik organizmlarning xususiyatlari (koordinatsiya, harakatlanish, moddalar almashinuvi (oziqlanish va nafas olish, ayirish), moddalar transporti, reproduksiya, o'sish va rivojlanish)	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tirik organizmlarning o'z-o'zini boshqarishi</li> <li>• Odamning nerv sistemasi</li> <li>• Umurtqasiz va umurtqalilarning harakat organlari</li> <li>• Odamning tayanch-harakat sistemasi</li> <li>• O'simlik va hayvonlarning oziqlanishi</li> <li>• Odamning ovqat hazm qilish sistemasi</li> <li>• O'simlik va hayvonlarning nafas olishi</li> <li>• Odamning nafas olish sistemasi</li> <li>• O'simlik va hayvonlarning ayirishi</li> <li>• Odamning ayirish sistemasi</li> <li>• O'simliklarda moddalar transporti</li> <li>• Hayvonlarning qon aylanish sistemasi</li> <li>• Odamning qon aylanish sistemasi</li> </ul>	1	1		2
Sitologiya asoslari	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Hujayrani o'rganish</li> <li>• Prokariot va eukariot hujayralarning tuzilishi</li> </ul>		1		1
Hayotiy jarayonlarning kimyoviy asoslari	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Hujayraning kimyoviy tarkibi</li> <li>• Hujayra tarkibiga kiruvchi suv va anorganik moddalar</li> <li>• Biomolekular. Uglevodlar. Lipidlar. Oqsillar. Nuklein kislotalar.</li> </ul>		1		1
Hujayralarda moddalar va energiya almashinuvi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Moddalar almashinuvi: energiya va plastik almashinuv</li> <li>• Hujayrada modda va energiya almashinuviga doir masalalar yechish</li> </ul>		1		1

Bo'lim	Ta'lim komponentlari	Bilish va tushunish	Qo'llash	Tahlil	JAMI
<b>Organizmlarning ko'payishi va individual rivojlanishi</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Hujayra sikli. Mitoz. Meyoz</li> <li>Tirik organizmlarning ko'payishi</li> <li>Ontogenez: embrional va postembrional rivojlanish</li> <li>Rivojlanishning umumiy qonuniyatlari.</li> </ul>		1		1
<b>Genetika seleksiya va biotexnologiya asoslari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Genetikaning rivojlanish tarixi. G. Mendel qonunlari. Monoduragay chatishtirish. Diploiduragay chatishtirish.</li> <li>Noallel genlarning o'zaro ta'siri</li> <li>Genlarning ko'p tomonlama ta'siri</li> <li>Belgilarning birikkan holda irsiylanishi</li> <li>Jins genetikasi</li> <li>Genetik masalalar yechish</li> <li>Genotipik va fenotipik o'zgaruvchanlik</li> <li>Odam genetikasi</li> <li>O'simlik va hayvonlar seleksiyasi, biotexnologiya</li> </ul>		1		1
	<b>JAMI</b>	<b>2</b>	<b>7</b>	<b>1</b>	<b>10</b>